

DINIY MA’RUZALARNING GRAMMATIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

Azimov Akbarjon Niyozidin o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti
akbarshohazimov3@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19456712>

Annotatsiya. Mazkur maqolada diniy ma’ruzalar nutqining grammatik hamda uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda diniy diskurs tarkibida shakllanadigan ma’ruza matnlarining sintaktik tuzilishi, leksik-semantik xususiyatlari, grammatik vositalarning qo‘llanishi hamda uslubiy ifoda imkoniyatlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, diniy ma’ruzalarda ritorik vositalar, ta’sirchanlikni kuchaytiruvchi nutq birliklari, takror, undov va murojaat shakllarining kommunikativ vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari diniy nutqiy janrlarning lingvistik tabiatini aniqlash hamda diniy diskursning funksional-uslubiy xususiyatlarini yoritishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: diniy diskurs, diniy ma’ruza, nutqiy janr, grammatik xususiyatlar, uslubiy vositalar, sintaktik tuzilish, ritorik usullar, kommunikativ ta’sir, diniy nutq.

Аннотация. В данной статье анализируются грамматические и стилистические особенности речи религиозных проповедей. В исследовании с научной точки зрения рассматриваются синтаксическая структура, лексико-семантические особенности текстов религиозных проповедей, формирующихся в рамках религиозного дискурса, а также особенности употребления грамматических средств и стилистических возможностей выражения. Кроме того, анализируются коммуникативные функции риторических средств, речевых единиц, усиливающих воздействие, повторов, восклицательных и обращённых форм, широко используемых в религиозных проповедях. Результаты исследования имеют важное научное значение для определения лингвистической природы религиозных речевых жанров и освещения функционально-стилистических особенностей религиозного дискурса.

Ключевые слова: религиозный дискурс, религиозная проповедь, речевой жанр, грамматические особенности, стилистические средства, синтаксическая структура, риторические средства, коммуникативное воздействие, религиозная речь.

Abstract. This article analyzes the grammatical and stylistic features of religious sermons. The study scientifically examines the syntactic structure, lexical-semantic characteristics of sermon texts formed within the framework of religious discourse, as well as the use of grammatical means and stylistic expressive possibilities. In addition, the communicative functions of rhetorical devices, speech units that enhance expressiveness, repetitions, exclamatory forms, and forms of address commonly used in religious sermons are analyzed. The results of the study are of significant scholarly importance for identifying the linguistic nature of religious speech genres and for revealing the functional and stylistic characteristics of religious discourse.

Keywords: religious discourse, religious sermon, speech genre, grammatical features, stylistic devices, syntactic structure, rhetorical devices, communicative impact, religious speech.

Tilshunoslikda nutqiy janrlarni o‘rganish masalasi zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir kommunikativ soha o‘ziga xos nutq shakllari, janrlari hamda uslubiy vositalariga ega. Shunday kommunikativ sohalardan biri diniy diskurs bo‘lib, u jamiyatning ma’naviy hayoti, axloqiy qadriyatlari va diniy e’tiqodlarini ifodalovchi muhim nutqiy faoliyat turini tashkil etadi. Diniy diskurs doirasida shakllanadigan nutqiy birliklar ma’lum kommunikativ vazifalarni bajaradi hamda o‘ziga xos grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Diniy diskurs tarkibida va’z, xutba, duo, tafsir, fatvo kabi turli nutqiy janrlar mavjud.

Ular orasida diniy ma’ruza alohida o‘rin tutadi. Diniy ma’ruza diniy bilimlarni yetkazish, axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilish hamda tinglovchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalashga qaratilgan nutq shakli hisoblanadi. Mazkur nutqiy janrda til birliklarining tanlanishi, grammatik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vositalarning ishlatilishi ma’lum kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi.

Diniy ma’ruzalar nutqi grammatik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda turli sintaktik va morfologik vositalar keng qo‘llanadi. Avvalo, diniy ma’ruzalar matnida murakkab sintaktik konstruksiyalar, sabab-natija munosabatlarini ifodalovchi gaplar hamda izohlovchi tuzilmalar ko‘p uchraydi. Bunday sintaktik tuzilmalar nutqning mantiqiy izchilligini ta’minlash hamda tinglovchilarga fikrni aniq yetkazishga xizmat qiladi. Diniy ma’ruzalarda buyruq-istak mayli shakllari ham faol qo‘llanadi. Bu shakllar orqali tinglovchilarni muayyan harakatga undash, ularni yaxshilikka chaqirish yoki ma’lum xatti-harakatlardan qaytarish maqsadi ko‘zlanadi. Masalan, *“yaxshilik qiling”, “sabrli bo‘ling”, “ilm olishga intiling”* kabi shakllar diniy nutqda tez-tez uchraydi. Bunday grammatik birliklar nutqning targ‘ibot va nasihat xarakterini kuchaytiradi.

Diniy ma’ruzalarda shart mayli va sababiy bog‘lovchilar yordamida qurilgan gaplar ham muhim o‘rin tutadi. Bunday tuzilmalar insonning xulq-atvori bilan uning natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan, agar inson yaxshilik qilsa, u albatta mukofot topishi; agar yomonlik qilsa, buning oqibati salbiy bo‘lishi kabi g‘oyalar grammatik vositalar orqali ifodalanadi. Diniy ma’ruzalarda shaxs olmoshlari, ayniqsa birinchi va ikkinchi shaxs shakllari faol qo‘llanadi. Bu holat nutqning dialogik xarakterini kuchaytiradi hamda tinglovchilar bilan yaqin kommunikativ aloqa o‘rnatishga yordam beradi. *“Biz”, “siz”, “bizning burchimiz”, “sizlar bilasiz”* kabi ifodalar orqali notiq va tinglovchi o‘rtasida umumiylik hissi yuzaga keladi.

Diniy ma’ruzalar nutqi uslubiy jihatdan ta’sirchanlik va emotsionallik bilan ajralib turadi. Ushbu nutqiy janrda tinglovchilarni ruhlantirish, ularning e’tiborini jalb qilish hamda ma’naviy ta’sir ko‘rsatish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu sababli diniy ma’ruzalar matnida turli uslubiy vositalar keng qo‘llanadi.

Bunday vositalar orasida ritorik so‘roq gaplar alohida o‘rin tutadi. Ritorik so‘roq gaplar javob talab qilmaydi, balki tinglovchilarning tafakkurini faollashtirishga xizmat qiladi. Masalan, *“Inson bu dunyoga nima uchun kelgan?”, “Yaxshilik qilgan inson hech qachon zarar ko‘radimi?”* kabi savollar tinglovchilarni fikrlashga undaydi. Takror usuli ham diniy ma’ruzalarda keng qo‘llaniladigan uslubiy vositalardan biridir. Muayyan g‘oyani kuchaytirish yoki tinglovchilarning e’tiborini muhim fikrga qaratish uchun ayrim so‘zlar yoki iboralar takrorlanadi. Bu usul nutqning ta’sirchanligini oshiradi hamda asosiy g‘oyaning yodda qolishini ta’minlaydi.

Murojaat shakllari ham diniy ma’ruzalarning muhim uslubiy elementlaridan biri hisoblanadi. *“Aziz birodarlar”, “hurmatli mo‘minlar”, “aziz yurtdoshlar”* kabi murojaatlar tinglovchilar bilan emotsional aloqa o‘rnatishga yordam beradi. Bunday uslubiy birliklar nutqning samimiyligini kuchaytiradi hamda diniy nutqning kommunikativ samaradorligini oshiradi.

Diniy ma’ruzalarda metafora, taqqoslash, obrazli ifodalar kabi stilistik vositalar ham qo‘llanadi. Bu vositalar orqali murakkab diniy tushunchalar sodda va tushunarli shaklda izohlanadi. Natijada tinglovchilar diniy g‘oyalarni osonroq anglaydi va qabul qiladi.

Diniy ma’ruzalar diniy diskurs tarkibidagi muhim nutqiy janrlardan biri bo‘lib, u o‘ziga xos grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega. Ushbu nutqiy janrda murakkab sintaktik konstruksiyalar, buyruq-istak shakllari, shart mayli va sababiy bog‘lovchilar keng qo‘llanadi. Bu grammatik vositalar diniy g‘oyalarni mantiqiy va izchil tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Uslubiy jihatdan esa diniy ma’ruzalar nutqi ta’sirchanlik, emotsionallik va targ‘ibot xakteri bilan ajralib turadi. Ritorik so‘roq gaplar, takrorlar, murojaat shakllari hamda obrazli ifodalar diniy nutqning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, diniy ma’ruzalar nutqining grammatik va

uslubiy xususiyatlarini o‘rganish diniy diskursning lingvistik tabiatini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi hamda nutqiy janrlar nazariyasini rivojlantirishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бахтин М.М. Проблема речевых жанров Литературно-критические статьи. – М.: Художественная литература, 1986. – С. 428-472
2. Юсупова Ш.Т. Диний матнларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. б.ф.д. (PhD) дисс. – Фарғона, 2020. – Б. 154.
3. Nurmanova, D. A. (2021). Neutralization of consonant opposition in anlaut of the uzbek language.
4. Azimov A.N. O‘zbek tilida diniy nutqiy janrlar tasnifi // Scientific journal of higher education and creative innovations Ajou sci. – 2025. – №1. – В. 50-53.
5. Azimov, A. N. (2025). DUO NUTQIY JANRINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Hamkor konferensiyalar*, 1(15), 131-133.